

O‘TKIR HOSHIMONING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA HAYOT HAQIQATI**Hayitova Gulchiroy Abdujalil qizi**Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.gulchiroyhayitova429@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.20058570>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida hayot haqiqatining qanday badiiy ifodalangani tahlil qilinadi. Asarda insoniylik, urushning og‘ir oqibatlarini hamda jamiyatdagi ziddiyatlar qahramonlar taqdiri orqali ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: realizm, hayot haqiqati, badiiy tahlil, obraz, urush, ijtimoiy muammo, vijdon.

Abstract. This article analyzes the problem of the truth of life in Otkir Hoshimov’s novel “Between Two Doors” based on the views of literary scholars. The work reveals realism, humanity, the tragedy of war, and social conflicts through the example of heroes.

Keywords: realism, truth of life, artistic analysis, image, war, social problem, conscience.

Аннотация. В данной статье анализируется проблема истины жизни в романе Откира Гошимова «Между двумя дверями» с точки зрения литературоведов. Произведение раскрывает реализм, гуманизм, трагедию войны и социальные конфликты на примере героев.

Ключевые слова: реализм, истина жизни, художественный анализ, образ, война, социальная проблема, совесть.

KIRISH. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani inson hayotining murakkab va ziddiyatli jihatlarini yoritib beradigan asarlardan biridir. Muallif hayotni faqat quvonch va yutuqlardan iborat emas, balki sinovlar, yo‘qotishlar va og‘ir tanlovlar bilan bog‘liq jarayon sifatida tasvirlaydi. Shu jihati bilan asar o‘quvchini hayotga real ko‘z bilan qarashga undaydi.

Realizm adabiyotda voqelikni bezaksiz, bor holicha tasvirlashni anglatadi. Mazkur roman ham aynan shu yo‘nalishda yozilgan bo‘lib, unda voqealar qahramonlarning ichki kechinmalari bilan uzviy bog‘liq holda beriladi. Adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov realizm haqida shunday yozadi: “Haqiqiy adabiyot — bu hayotni bezamasdan, uning ichki haqiqatini ochib berishdir.” [2,15-bet] Mazkur fikr romanning g‘oyaviy yo‘nalishiga to‘liq mos keladi.

Adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov o‘z tadqiqotlarida badiiy asardagi haqiqatni quyidagicha izohlaydi: “Badiiy haqiqat — bu voqelikning nusxasi emas, balki uning ma‘naviy mohiyatini ochib beruvchi san’atdir.” “Ikki eshik orasi” da ham aynan shu tamoyil kuzatiladi.

Adabiyotshunos Matyoqub Qo‘shjonov urush haqidagi asarlar haqida shunday yozadi: “Urush haqidagi asarlarning kuchi — undagi inson taqdirining iztiroblarini ochib bera olishidadir.” Romandagi: Urush o‘yin emas. Ikkinchi jahon urushi ellik million odamning uvoliga qoldi. Shundan yigirma olti millioni bizning odamlar edi. Eng aziz, eng asil kishilarimiz.

Qolaversa, urush faqat okopdagi jangchilarning joniga chang solib qolmadi. Minglab chaqirim naridagi odamlarni ham sinovdan o‘tkazdi. Mushkul damlarda imonini, insonligini saqlab qolgan ota-onalarimiz, aka-opalarimizning hayoti bugungi zamonda bizga o‘rnak bo‘lsa, ne ajab! Bu iqtibos urushning global fojea ekanini ko‘rsatadi. Muzaffarning otasi obrazida ham urush izlari bor: uning jarohati, hayotga munosabati urushning inson ruhiyatiga qanchalik ta’sir qilganini ko‘rsatadi. Demak, urush — faqat frontdagi jang emas, balki butun jamiyat hayotiga singib ketgan fojidadir.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqotda badiiy asarni har tomonlama yoritish maqsadida kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tahliliy metod asosida asarning mazmun-mohiyati, syujet qurilishi hamda obrazlar tizimi chuqur o'rganildi. Ushbu metod yordamida bosh qahramonning ruhiy kechinmalari, yerga bo'lgan munosabati va avlodlar davomiyligi g'oyasi izchil tahlil qilindi.

Shuningdek, tarixiy-qiyosiy metoddan foydalanilib, asarda aks etgan voqealar sobiq sovet davri qishloq hayoti bilan bog'liq holda o'rganildi. Bu orqali muallif tasvirlagan ijtimoiy muhit, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar ilmiy asosda tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida sotsiologik yondashuv ham qo'llanilib, asardagi dehqon obrazi jamiyatning muhim ijtimoiy qatlamining ifodasi sifatida ko'rib chiqildi. Bu orqali inson mehnati, uning qadri va jamiyatdagi o'rni masalalari ochib berildi.

NATIJALAR. Hayot haqiqati va realizm talqini Asarda hayot haqiqatini anglash masalasi muhim o'rin egallaydi. Muallif inson eshitganiga emas, balki bevosita ko'rgan va boshdan kechirganiga ko'proq tayanishi kerakligini ta'kidlaydi. "Rost bilan yolg'onning o'rtasi – to'rt enlik", degan gap bor, qiziq, nega endi oz emas, ko'p emas, to'rt enlik? Gap shundaki, ko'z bilan quloqning orasi – to'rt enlik ekan. Eshitganingga emas, ko'rganingga ishon... Maqsad – shu." [1,6-bet] Hayot bu — doimiy tanlovlar maydoni. Har bir inson o'z qarorlari orqali o'z taqdirini belgilaydi. Shu jihatdan roman qahramonlari orqali turli hayotiy pozitsiyalar ochib beriladi.

Muzaffar obrazi – vijdon va haqiqat timsoli

Romanning markaziy qahramonlaridan biri — Muzaffar. U oddiy quruvchi bo'lishiga qaramay, ichki dunyosi boy, vijdonli inson sifatida gavdalanadi. Qurilishdagi voqealarda u nohaqlikka qarshi turadi. Masalan, sifatsiz material bilan ishlashga majburlashganda u bunga qarshi chiqadi. Uning ichki qarori quyidagi fikrda ifodalanadi: "Ammo aldam-qaldam ish qilmayman." Bu — hayot haqiqati: inson har doim tanlov oldida turadi va bu tanlov uning ma'naviy qiyofasini belgilaydi. [4,112-bet] Jumla Muzaffarning hayotiy pozitsiyasini ochib beradi. U uchun moddiy manfaatdan ko'ra insoniylik va halollik ustun turadi. Shuningdek, Muzaffar o'z harakatlarining boshqalarga ta'sirini ham angelaydi: u brigadadoshlarining oilasi borligini, ularning ahvoli og'irligini tushunadi. Bu esa obrazning ichki ziddiyatini kuchaytiradi.

"Kobra" obrazi – ijtimoiy illat timsoli

Asarda Shavkat Qudratovich obrazi orqali jamiyatdagi ayrim salbiy holatlar ochib beriladi. U uchun eng muhim narsa — reja va natija, inson taqdiri esa ikkinchi darajaga tushib qoladi. Bu obraz orqali muallif mansabparastlik va beparvolikni tanqid qiladi. "Kobra"ning harakati orqali quyidagi muammo ochiladi: insoniylik va mansab o'rtasidagi ziddiyat, javobgarlikdan qochish, yolg'on natijalar ortidan quvish. Bu obraz real hayotdagi ko'plab rahbarlarning umumlashma timsolidir.

MUHOKAMA. Oila va insoniy qadriyatlar. Inson hayotida yaqinlarini yo'qotish — eng og'ir sinovlardan biri. Muallif bu haqiqatni ta'sirchan sahnalar orqali ochib beradi. Romanda oila muhim ijtimoiy institut sifatida tasvirlanadi. Muzaffarning ota-onasi bilan munosabati, ayniqsa, onasining kasalligi va vafoti bilan bog'liq sahnalar juda ta'sirli. Onasining o'limi haqidagi xabar qahramon ruhiyatida keskin burilish yasaydi. Bu epizod orqali yozuvchi hayotning muqarrar haqiqatini — yo'qotish va afsusni ko'rsatadi. Onaning mehr-muhabbati, uning farzand taqdiri uchun qayg'urishi o'zbekona qadriyatlarning ifodasidir.

Bolalik xotiralari va hayot falsafasi. Asarda bolalik xotiralari orqali insonning shakllanish jarayoni ko'rsatiladi. Bolalik — inson xarakterining poydevori bo'lib, keyingi hayotga kuchli ta'sir qiladi. Asarda bolalik xotiralari ham alohida ahamiyatga ega. Kichik Muzaffar hikoyalari orqali: qo'rquv, tasavvur, sodda dunyoqarash tasvirlanadi. Masalan, “Alvasti ko'prik” haqidagi epizod bolalik ruhiyatini yorqin aks ettiradi. Bu sahnalar orqali yozuvchi inson hayoti bolalikdan boshlab shakllanishini ko'rsatadi. Asarda har bir insonning ruhiyati to'liq ochib berilgan. insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabati, mehri va qahri yashirmay ko'rsatilgan.

Urush degan balo millionlab insonlar hayotiga zomin bo'lganini bilamiz, lekin urush orqasida shavqatsiz hayot bilan jang qilayotgan odamlarchi? Ularni bilamizmi... Tarbiya insonga bolaligidan beriladi deyiladi, ammo inson katta bo'lganida ham tarbiyalanishi mumkin. Faqat bunda ota-ona emas, hayot hamma narsani hal qiladi. Shuningdek Kimsan ulg'aygandan so'ng ham hayot uni tarbiyalashda davom etadi, dars beradi. Urush uni ulg'aytirdi, “katta inson” qildi.

Urush insonni diydasi qotirib, ruhiyatiga yomon ta'sir qiladi. Kimsan shaxshiyatida bu so'zlar isbotini yaqqol ko'rishimiz mumkin. “Mo'min-qobil” - bo'lish nima o'zi? Birov o'ng yuzingga ura, chap yuzingni tutib ber, deganimi?! Dushman bitta mina otib, o'n bitta o'zbekni qiyma-qiyma qilsin, bomba tashlab, dyadya Vasyaning ichagini boshiga salla qilib qo'ysin-da, men qo'ydek yuvosh, musichadek beozor bo'lib turaveraymi! Yo'q! Qonga – qon! Jonga – jon!

Insof degani shu! Bu so'zlar shunchaki aytilmagan, yurakdan. qalbdan chiqqan. Chunki bu vaqtda o'zbeklarga xos “mo'min-qobillik” bu yerda ish bermaydi. Qahri qattiq inson kurasha oladi. Kimsanning Robiyaga yozgan xatida shunday deyiladi: Bilmadim, balki shafqatsiz odam – diyonatsiz bo'lar.

Lekin diyonatli bo'lish uchun ham shafqatsiz bo'lish kerak. Men shunga ishondim. Urush meni shunga majbur qildi, Robiya!

Xotira va ichki kechinmalar tahlili

Roman qahramonlarining ichki dunyosi xotira orqali ochiladi. Xotira — insonning ajralmas qismi bo'lib, u orqali o'tmish va hozirgi zamon o'zaro bog'lanadi. Muallif xotirani quyidagicha tasvirlaydi: inson xotirasi “yopiq ombor”ga o'xshaydi. Bu juda chuqur falsafiy tasvirdir. Chunki inson o'z xotiralaridan qochib qutula olmaydi. Yaxshi va yomon voqealar birgalikda yashaydi. Muzaffarning ichki monologlari orqali: vijdon azobi, o'tgan hayotga qaytish, o'zini tahlil qilish, jarayonlari ochib beriladi.

Asarning badiiy xususiyatlari

Roman quyidagi badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- ko'p ovozli (polifonik) tuzilma;
- xalqona til va iboralar;
- ichki monolog va psixologik tahlil;
- real hayotga yaqin obrazlar;

Muallif oddiy voqealar orqali katta falsafiy xulosalar chiqaradi.

XULOSA. “Ikki eshik orasi” romani inson hayotining turli jihatlarini chuqur yoritadi.

Unda inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar real tasvirlangan. Asar o'quvchini hayot haqida o'ylashga undaydi va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Muallif voqelikni ideallashtirmay, balki uning ichki ziddiyatlarini ochib berish orqali badiiy haqiqatni yaratishga erishadi. Umuman olganda, “Ikki eshik orasi” romani inson hayotining mohiyatini anglash, axloqiy qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish va jamiyatdagi muammolarni badiiy idrok etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolib, o‘quvchini hayot haqiqatini chuqurroq anglashga, shaxsiy pozitsiyasini ongli ravishda shakllantirishga undaydi.

Shu jihatdan, roman o‘zbek adabiyotida realizm an‘analarini davom ettirgan, ko‘p qirrali obrazlar tizimi orqali hayot falsafasini teran ifodalagan muhim badiiy-estetik hodisa sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hoshimov, O‘. Ikki eshik orasi. — Toshkent: “Sharq”, 2013. — 624 b.(5, 6, 7–10, 12–15-betlar)
2. Ozod Sharafiddinov. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent, 2005. — 15-bet.
3. Ibrohim G‘afurov. Badiiy tafakkur masalalari. — Toshkent, 2010. — 27-bet.
4. Naim Karimov. O‘zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent, 2008. — 112-bet.
5. Bahodir Karim. Zamonaviy adabiyot muammolari. — Toshkent, 2015. — 64-bet.
6. Matyoqub Qo‘shjonov. Adabiyot va hayot. — Toshkent, 1998. — 89-bet.
7. Umarali Normatov. Adabiy jarayon va tanqid. — Toshkent, 2007. — 45-bet.
8. Abdug‘afur Rasulov. Badiiy asar tahlili. — Toshkent, 2012. — 101-bet.